

Tursunov Xusanboy Burgutovich
Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat
chet tillari instituti dotsenti, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E:mail: tursunovhb@rambler.ru
Tel : +998937040874

**Chet tilda muloqot qilishning kommunikativ, leksik, fonetik
qiyinchiliklari va uning bartaraf etish yo'llari**

Annotatsiya: Kompetentsiyaga asoslangan yondashuv tushunchasi XXI asrda O'zbekistonning barcha ta'lim sohalariga ham kirib keldi. Kompetentsiyaga asoslangan yondashuvning paydo bo'lishi hozirgi vaqtda "bilim-ko'nikma-malaka" uchligi o'quv jarayonining integratsiyalashgan natijalarini tavsiflash uchun etarli bo'lmaganligi bilan izohlanadi.

Kalit so'zlar: kompetentsiyaviy yondashuv, yozma tilning kontseptsiya, etnografik, lingvistik va psixologik nuqtai nazar, avtopsiya, avtopraksiya, avtoxresiya, avtoleksiya.

Турсунов Хусанбой Бургутович
Доцент Наманганского государственного
института иностранных языков, имени Исаак
Хан Ибрат, доктор педагогических наук (PhD)

**Коммуникативные, лексические, фонетические трудности общения на
иностранном языке и пути их преодоления**

Аннотация: Концепция компетентностного подхода в XXI веке проникла и во все сферы образования Узбекистана. Возникновение компетентностного подхода объясняется тем, что в настоящее время триады "знание-умение-квалификация" недостаточно для характеристики интегрированных результатов процесса обучения.

Ключевые слова: компетентностный подход, концептуальная, этнографическая, лингвистическая и психологическая перспектива письменного языка, аутопия, аутопраксия, ауторецепция, автолексия.

Tursunov Khusanboy Burgutovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical
Sciences, Namangan State Institute of foreign
Languages

Communicative, lexical, phonetic difficulties of communicating in a foreign language and ways to eliminate it

Annotation: The concept of a competency-based approach has also expanded into all educational areas of Uzbekistan in the 21st century. The emergence of a competency-based approach is currently explained by the fact that the triad “knowledge-skills-skills” is not enough to describe the Integrated Results of the educational process.

Keywords: competency approach, concept of written language, ethnographic, linguistic and psychological point of view, autopsy, autopraxia, autochraxia, autolexia.

Kirish

Inson axborot oqimlaridan foydalana olishi, yangi texnologiyalarni o'zlashtirishi, o'z-o'zini o'rganishi, etishmayotgan bilimlarni izlab topishi va undan foydalanishi, tafakkurning umuminsoniyligi, teranligi va harakatchanligi kabi sifatlarga ega bo'lishi talab etiladi. XXI asrda dunyoning rivojlangan davlatlarida ta'lim mazmunini modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ta'limda kompetentsiyaviy yondashuvni joriy etish masalasiga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim til o'rganuvchilarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish layoqatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim hisoblanadi.[1]

Adabiyotlar tahlili

Kommunikativ yondashuv til o'rganuvchilarni turli vaziyatlarda muloqot qilish imkonini beradi. Rus pedagogi va psixologi Lev Vigotskiyning (1896-1934)

“Fikr va nutq” ((*Мышление и речь* 1934) asariga murojaat qiladigan bo'lsak, unda yozma tilning kontseptsiya qobiliyati kabi yuqori darajadagi jismoniy va psixologik (ruhiy) qobiliyatlarni rivojlantirishda tutgan o'rnini, umumlashtirish, mavhumlashtirish, yodlash va boshqa faoliyatlar, ta'kidlangan. “Yozuv - tayyor fikrlashning ifodalash uchun xizmat qilmaydi. Nutq orqali fikr qayta tashkil etiladi va o'zgaradi”.[2]

Kompetentlikka asoslangan yondashuv atamasi o'rniga “kompetentsiya” atamasining ma'nosi qo'llanilishini ta'kidlash muhimdir. 1970 va 1980 –yillarda ushbu tushuncha ba'zi xalqaro institutlar ta'siri ostida, barcha maktab fanlari hamda ta'lim sohasi bilan shug'ullanuvchilar uchun "kompetentsiya orqali yondashuv" tushunchasini umumlashtirdi. 2000 yillar islohotida bu yondashuvni, xususan, FT (frantsuz tili)ni o'rgatilishini boshlang'ich va o'rta darajada baholash siyosatiga tatbiq etdi. Biroq, bilim, ko'nikma va munosabatlardan iborat bu kompetentsiya vaqt o'tishi bilan asta-sekin rivojlandi.

XX asrning 60-yillarining boshlarida tilshunolar til tuzilmalarini o'rganishga ko'proq qiziqish bildirdilar. Aynan shu paytda Del Xaymes tilning funktsional o'lchamlarini o'rganishni boshlashni taklif qildi. Xaymes, nutq - etnografik, lingvistik va psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinishga loyiq degan g'oyani ilgari surdi. Xaymesning fikriga ko'ra, ijtimoiy-madaniy guruhning aloqa amaliyotlari ro'yxati bir nechta tillar va bir nechta lahjalar, shuningdek, og'zaki bo'lmagan (noverbal) xatti-harakatlarning elementlarini o'z ichiga oladi. Shuning uchun, avvalambor, funktsiyalarni o'rganish kerakligi talab qilinadi. Jamiyat a'zolari o'zlarining og'zaki va og'zaki bo'lmagan manbaalarini muhitga qarab qanday ishlatishlarini kuzatadilar. (D.Hymes:1972) [3]

Tadqiqot metodologiyasi

Boshlang'ich ta'limning asosini shaxs kamoloti, uning barkamol shakllanib, rivojlanishi haqidagi g'oyalar belgilaydi. Shu jihatdan taklif etilayotgan qarashlar va g'oyalar tizimi amaldagi fanli o'qitishga asoslangan boshlang'ich ta'limdan integrallashgan, shaxsga yo'naltirilgan hamda kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan boshlang'ich ta'limning istiqbolliligini ifodalaydi. Shaxsga

yo'naltirilgan hamda kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan boshlang'ich ta'lim jamiyat taraqqiyoti bilan barobar rivojlanib, takomillashib boruvchi ta'lim nazariyasiga tayangan holda muntazam tarzda rivojlantiriladi va shaxsni jamiyat talablari asosida yuksaltirishga xizmat qiladi.

Kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni alohida shakllantirishni emas, balki ularni kompleks ravishda egallashni taqozo etadi. Shunga ko'ra, o'qitish metodlari ham o'zgaradi.

Yan Amos Komenskiy ta'lim olishni to'rt bosqichga ajratadi. Bular quyidagilar:

- 1) avtopsiya (mustaqil kuzatish);
- 2) avtopraksiya (amaliy jihatdan bajarish);
- 3) avtoxresiya (olingan bilim, hosil bo'lgan ko'nikma-malakalarni yangi sharoitda qo'llash);
- 4) avtoleksiya (o'z faoliyati natijalarini mustaqil bayon qilish).

Tahlillar va natijalar

Kompetentsiyaga asoslangan yondashuv tushunchasi XXI asrda O'zbekistonning barcha ta'lim sohalariga ham kirib keldi. Kompetentsiyaga asoslangan yondashuvning paydo bo'lishi hozirgi vaqtda "bilim-ko'nikma-malaka" uchligi o'quv jarayonining integratsiyalashgan natijalarini tavsiflash uchun etarli bo'lmaganligi bilan izohlanadi.

"Kompetentsiya" tushunchasini aniqlash juda qiyin va u turli xil ma'nolarga, turli xil sohalarida ko'plab chalkashliklarga va izohlarga sabab bo'lishi kuzatiladi. Ushbu ta'rifdan kelib chiqqan holda, kompetentsiya umumlashgan markaziy tushunchadir. "Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi.[4]

Kompetentlik (lotincha competente – mos, qobiliyatli, bilimdon) – har qanday sohada har tomonlama bilimga ega bo'lgan obro'li bo'lgan shaxsning sifati.

Kompetentlik – muayyan kompetentlikka, ya'ni o'z faoliyati haqidagi bilim va tajribaga ega bo'lish, xolisona hukm chiqarish va aniq qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Chet til o'qitishning asosini kommunikativlikka o'rgatish tashkil qilib, bu jarayon chet tilda nutq faoliyatini shakllantirishga, gapirishga, eshitib tushunishga, o'qishga, fikrini yozma bayon qilishga o'rgatish va o'quvchilarning bilish faoliyatini shakllantirishni, rivojlantirishni ko'zda tutadi. Chet tilda muloqotga o'rgatish kommunikativ vaziyatlar orqali amalga oshiriladi. Bu o'rinda o'quvchi hayotida yuz berish mumkin bo'lgan kommunikativ vaziyatlarga alohida e'tibor beriladi. O'quvchi til qoidasini yaxshi o'zlashtirib olgan bo'lsa-da, unda gapirish, o'z fikrini suhbatdoshi e'tiboriga havola qilish malakasi etishmasligi mumkin. Bu o'rinda o'quvchilarning faqat lingvistik kompetentsiyasini (salohiyatini) shakllantirishga emas, kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirishga alohida e'tibor beriladi. O'quvchi o'quv materialida bildirilgan axborotga munosabat, fikr bildirishning turli tabiiy va sun'iy kommunikativ vaziyatlarda o'rganib oladi.[5]

Nutq asosiy funktsiyaga egalik qilsa, o'quvchi tomonidan uni bajarishini sezsa, o'quv jarayonida qatnashsa, shundagina o'qituvchi maqsadiga etadi"[6].

Boshqacha qilib aytganda, til tafakkur bilan chambarchas bog'liq va bevosita aqlga tobedir. Buyuk rus psixologi Lev Semyonovich Vigotskiyning (1896-1934) qarashlariga ko'ra, “ Til aloqa vositasi sifatida tug'iladi va ikkinchi marta ichki tilga aylanib, bolaning o'z faoliyatini tartibga solishga imkon beruvchi asosiy fikrlash tarziga aylanadi, u o'z faoliyatini rejalashtiradi, baholaydi, bajariladigan ish faoliyatini tartibga soladi".[7]

Mutaxassislar o'qitish paytida ehtiyojlarni qondirish haqida ogohlantiradilar. Bu esa o'z navbatida o'qitish, o'rgatish va o'rganish ob'ektiga nisbatan motivatsiya va ijobiy munosabatlarni shakllantiradi. Ushbu faoliyat idrok, o'rganish, xotira, til va fikrlash kabi bilim jarayonlarini o'z ichiga oladi. “Avvalo, maktab o'quvchisining asosiy ehtiyojlari nimalardan iborat ekanligini bilishimiz zarur. U

o'ynaydi, kuylaydi va ular takrorlashni yaxshi ko'radilar. Ular o'yin o'ynaydilar, suratlarni tomosha qilishni yoqtiradilar, ular tarixni va tasavvur qilishni yaxshi ko'radilar.” [8] Bunda Uil`yam Uordning aytgan so'zlari “Oddiy o'qituvchi dars beradi. Yaxshi o'qituvchi bilim beradi. Zo'r o'qituvchi esa o'zi o'rnak bo'ladi. Buyuk o'qituvchi ilhomlantiradi” yanada ahamiyat kasb etadi.

O'quvchi uchun “chet til fizikaviy jarayonlar bilan sinxronlashgan moyillikka egadir. Aksariyat psixologlar bolalarda faollikdan boshqa hech qanday ta'lim bo'lmasligi kerakligini ta'kidlaydilar. Birinchidan, motivatsiya bilan bog'liq pedagogik masalalar ham chetda qolmasligi kerak. O'quvchilar darsda tezda zerikadilar. Bir tomondan, til bilan har kuni aloqa qilish, maktab o'quv dasturidagi dars jadvali so'nggi vaqtga to'g'ri kelsa, ularni charchatadi. Bu juda qiyin payt, ular och qolishadi, maktabni tark etishmoqchi bo'lib, darsga e'tibor berishmaydi. Boshqa tomondan, o'quvchilarda uzoq muddatli motivatsiya yo'qligi ma'umdir. Boshlang'ich sinf o'quvchisi chet tilni qanday maqsadlarda o'rganishini hali bilmaydi yoki uni nimaga xizmat qilishi haqida faqat noaniq tasavvurga ega. Shunday qilib, o'rganiladigan tilni tanlash uning foydalilik darajasi yoki qiyinligi bilan belgilanadi yoki maktab muassasasi tomonidan yuklatiladi.

Xat-fikrlarni yozma shaklda etkazadigan murakkab nutq faoliyatidir. Jan Pier Robertning ta'kidlashicha, “til didaktikasida yozuv bu egizak tushunchalarning bir qismi bo'lib, uni o'rganish muqarrar: yozish\ gapirish, o'qish\ yozish, tushunish\ yaratish, fonemalar\ grafemalar, tovush\ grafiya va boshqalar” ...[9]

Psixologik va lingvistik xususiyatlariga ko'ra farqlanuvchi yozma nutq og'zaki nutq bilan uzviy bog'liqdir. O'g'zaki nutq kommunikativ vazifani bajaradi. O'rta maktab dasturi yozuvni faqat til o'zlashtirish vositasi deb hisoblaydi. Yozuvni o'rgatish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- frantsuz tilining grafik tizimini egallash;
- so'zlarning yozilishini egallash ;
- yozma nutqni egallash;

O'quvchilar frantsuz alifbosi harflarini yozishni mukammal o'zlashtirishlari kerak. Bu maqsadga erishishda bir qator qiyinchiliklarga duch keladi, unlilar

ustidagi diakritik belgilar bilan ifodalanadi: é, è, ù, à, û, ê, â, ô, î. Boshqa harflarni yozishni maxsus o'rgatish, harfning shakli va tovush bilan bog'liqligini tushuntirish kerak. Grafikani o'zlashtirish mashqlari quyidagicha:

- 1) bosma va yozma harflarni solishtirish uchun harflarni (uyda va sinfda) yozish;
- 2) doskaga yozilgan namunalar asosida so'zlarni yozish;
- 3) doskada va daftarlardagi harflarni aytib berish;
- 4) harflarni alifbo tartibida yoddan aytib berish;
- 5) kartochkalarga yozilgan harflar bilan mashq qildirish. (o'qituvchi kartochkani ko'rsatadi, o'quvchilar harfni va tegishli tovushni aytadilar; o'qituvchi tovushni aytadi, o'quvchi esa tegishli kartochkani oladi.)

Bu mashqlarning barchasi bosh harflar bilan bajariladi; bosma harflarni o'qish va ularni yozish uchun mo'ljallangan kartochkalar yordamida mashq qilinadi. Grafik tizimni o'rgatishda o'quvchining ona tili alifbosida mavjud bo'lmagan harflarga e'tibor qaratish kerak. Masalan, bu fikr ç, ph, h, y, c va g harflarni bir necha xil shaklda o'qilishi bilan bog'liqdir. Frantsuz alifbosi 26 harfni o'z ichiga oladi, bu harflar 35 xil tovushni ko'rsatadi. Frantsuz imlosining asosiy xususiyati - aniq harf va harfiy birikmalarning yo'qligidir. Frantsuz yozuvi uchun fonetik tamoyildan foydalanish juda shartlidir. An'anaviy yozish fransuz tili orfografiyasini to'g'ri yozilishida katta qiyinchilik tug'diradi. Ular na fonetik, na morfologik jihatdan izohlanmaydi va eski metodlarning so'ngan talaffuzi va imlosini bildiradi.

Zamonaviy fransuz tilida katta qiyinchiliklarga sabab bo'ladigan bir qancha omillar mavjud: **h muet** (talaffuz qilinmaydigan), ikkilangan undoshlar, bir qator suffikslar (**- ment, - tion, - ence, - ent, - ture, - sion**), oxirida va so'z o'rtasida talaffuz qilinmaydigan undoshlar yoziladi. Ba'zan qiyinchiliklar muayyan qoidalarga bo'ysunadi. Masalan:

- 1) Q harfidan (**cinq -besh, coq -xo'roz**), so'zlaridan tashqari,) so'ng u harfi yoziladi, lekin talaffuz qilinmaydi: **quatre-to'rt, fabrique-fabrika, quitter- tark etmoq, quoi-nima**. Ushbu qoidadan foydalanib, **la queue-dum** kabi so'zning yozilishini tushuntirish osonroqdir.

2) [ak], [ap], [af], [at], [as] tovush birikmalari bilan boshlanadigan ko'pgina so'zlarda undosh harflar ikkilanadi. Misollar: **accuser, accent, attacher, atteindre, attentif, assez, assis, assiette, assister, assurer, apprendre, affiche;**

3) **b-p** harflaridan oldin **n** harfining o'rniga **m** harfi yoziladi: (bon –yaxshi so'zi bundan mustasno): **bombe, lampe, pompe**

Frantsuzcha didaktik lug'atiga ko'ra, yozuv “keng ma’nodagi og'zaki nutqdan farqli o'laroq, tilning o'ziga xos xususiyatini, yozuv bilan tavsiflangan, tilni o'ziga jalb qiladigan va o'qish mumkin bo'lgan grafik izni anglatadi”. [10]

Yozuv –bu insonlar o'rtasida o'zaro bog'liqlikning ajoyib vositasidir, chunki bu so'z va ma’nolarni, hatto nutq bo'lmagan taqdirda ham almashishga imkon beradi. Shuningdek, u aytilgan yoki qilingan narsalarni xotirada saqlaydi, shu bilan tarixga yo'l ochadi va bilimlarni himoya qilish va uzatishga yordam beradi. Va nihoyat yozuv ham imkoniyat vositasidir ". [11]

Xuddi shu ma’noda Lev Vigotskiy aytadiki, “yozma til- bu o'ziga xos verbal funktsiya bo'lib, uning tuzilishi va ishlash uslubi, og'zaki tildan farq qilmaydi, chunki ichki til tashqi tildan ajralib turadi”. [12]

Shu asnoda, o'quvchilarning xotirasini yaxshilash usullariga qiziqish paydo bo'ladi. Xotira va boshqa ruhiy funktsiyalar o'rtasidagi munosabatlarda muhim o'zgarish o'smirlik davrida sodir bo'ladi. O'smirlik va ilk o'smirlik davrida o'qish, monolog va yozuv faol rivojlangan bo'ladi.

Xulosa

Nutq jarayonida ichki nutq yordamida fikrlarni oldindan aniqlash mavjud. Tinglash va gapirishning qisqacha qiyosiy tahlili tinglash va gapirishning o'zaro yaqinligini emas, balki ularning o'qish va yozish bilan organik aloqasini ham ko'rsatadi. O'qishdagi xatolarini fonetik, leksik va grammatik xatolarga ajratiladi. Fonetik xatolar alohida tovushlar, so'zlar, iboralar va jumlar talaffuzidagi buzilishlarni aks ettiradi. Ular, ayniqsa, ovoz chiqarib o'qishda ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari, ba’zan ular semantik buzilishlar bilan bog'liq. Grammatik o'qishdagi xatolari eng keng tarqalgan. Yozuv analitik hodisa deb qaraladi va

tilning mohiyati ma'noning umumiy idrokidir. Shundan so'ng o'quvchi o'qishni boshlaydi. O'quvchi og'zaki bilimga ega bo'lmaguncha yozma nutq kechiktiriladi.

Deshenes fikriga ko'ra yozuv murakkab jarayondir, matn yozish - bu harf, so'z, gaplar xazinasi bilan boyitish, shuningdek, muallifning fikrini etkazish va qabul qiluvchini to'g'ri xabardor qilishdan iboratdir.[13] Aslida, maktabda o'quvchilar ko'rsatmalarni berish va tushuntirish, muloqot qilish, so'zlab berish, tadqiqotlarni taqdim etish, ma'lumot berish, harakat qilish va qarshilik qilish va bir qancha maqsadlar uchun yozadilar. Ushbu bobda boshlang'ich ta'limda og'zaki va yozma nutq jarayonlarida yaxshi muloqot qilish uchun bir qancha qiyinchiliklar, to'siqlar, xatolar mavjudligi va ularni bartaraf etish yo'llari aniqlandi.

Shu nuqtai nazardan, alban yozuvchisi, doktor Kristian Montekot fikriga qo'shilib quyidagicha xulosa qilamiz: Chiroyli, bexato va mazmunli yozish uchun qanday o'qishni ham bilish juda muhimdir" .[14]

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Вахобов м.м. Компетенциявий ёндашувга асосланган давлат таълим стандартларини жорий этиш – замонавий таълим парадигмаси сифатида (ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ / СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ 2016,10)
2. Выготский. Л. “Мышление и речь» 1934.стр.1
- 3.D. Hymes (dir.) 1972. Directions in sociolinguistics. New York, Holt, Rinehart etWinston (traduction française : Modèles pour l’interaction du langage et de la vie sociale dans ELA n°37).
4. Moirand S., 1982. Enseigner à communiquer en langue étrangère, Paris, Hâchette.
5. Андреевская-Ливернстерн Л.С. Методика преподавания французского языка в средней школе. – М: 1983.
- 6.ROUX J.-P., « Socio-constructivisme et apprentissages scolaires », Publications de l’Université de Provence ; IUFM Aix-Marseille [en ligne], [consulté le 12/10/2006], disponible sur <http://recherche.aixmrs.iufm.fr/publ/voc/n1/roux/index.html>>.
- 7.Л.С.Выготский, “Мышления и речь” 1934
- 8.Merrakchi, I. (2011). Le jeu dans l'enseignement / apprentissage de l'oral en FLE (français langue étrangère) pour une médiation pédagogique adaptée aux apprenants. 10 avril 2018, de Université Mohamed Kheider Biskra
- 9.Christiane Blaser. Fonction épistémique de l'écrit : pratiques et conceptions d'enseignants de sciences et d'histoire du secondaire. Thèse sous la direction de
- 10.Suzanne-G. Chartrand, Université Laval, 5 avril 2007

- 11.**ROBERT, Jean Pierre, Dictionnaire pratique de didactique du FLE, Paris, L'Essentiel Français, 2e édition 2008, p.76.Microsoft R Encarta R 2008, Microsoft corporation
- 12.**Vygotsky, L S, Pensée et langage, Paris, Ed. Sociales, 1985, p159
- 13.**Deschênes, J. (1983). L'évolution historique du statut juridique des langues au Canada. Les Cahiers de droit, 24 (1), 23–40. <https://doi.org/10.7202/042532ar>
- 14.**Montécot,ch.Techniques de communication écrite.1990,Edition Eybolles,2éme edition